



<https://doi.org/10.36078/987655571>

Received: April 16, 2026
Accepted: June 22, 2026
Available online: June 25, 2026

Original research article / Original tadqiqot maqolasi

VERBAL-VISUAL INTERACTION BETWEEN TRANSLATION AND PRAGMATICS IN FILM DISCOURSE

Nargiza MAMADJANOVA

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Andijan State University
Andijan, Uzbekistan
Email: mamadjanova.nargizal@mail.ru
ORCID iD: 0009-0005-4657-4821

ABSTRACT

In today's rapidly evolving scholarly landscape, film discourse has emerged as a relatively new field of linguistic research attracting growing attention. The historical development of cinematography shows that early films were largely documentary, depicting everyday scenes such as the arrival of a train or workers leaving a factory; they were short and silent. Over time, fantasy elements and special effects transformed cinema into an art of illusion, while directors developed close-ups, editing and narrative techniques, giving rise to genres such as comedy, the western and drama.

In the silent era, emotions were conveyed mainly through pantomime, and the transition to sound imposed new artistic and technical demands on actors and directors. By the twentieth century, audience-oriented films enriched with special effects were being produced, while filming, sound recording and editing shifted to digital technologies.

The primary aim of this article is to examine the significance of pragmatics in film discourse, with emphasis on the verbal-visual relationship that shapes meaning in cinematic texts. The main objectives of the research are to identify the linguistic, communicative and cultural features of film discourse, to analyse the mechanisms through which pragmatic meaning is generated in film texts, and to explore the specifics of translating audiovisual material across languages and cultures.

The study employs historical-cultural, comparative linguocultural and contextual analysis. The findings indicate that contemporary cinema is far more than a collection of moving images: it is a sophisticated art form with a complex artistic language and a powerful influence on viewers. The results contribute to a deeper understanding of film texts as carriers not only of semantic but also of pragmatic, communicative and cultural meaning.

In conclusion, the study of film dialogue is of considerable importance for pragmatics, linguocultural studies and cognitive linguistics, laying the groundwork for new approaches to interpreting audiovisual texts.

Key words: film discourse, cinematography, comparative analysis, audiovisual, pragmatics, context, communication, verbal, non-verbal.

For citation:

Mamadjanova, N. (2026). Verbal-visual interaction between translation and pragmatics in film discourse. *Philology Matters*, 56(2), 57–73. <https://doi.org/10.36078/987655571>.



KINODISKURS TARJIMA VA PRAGMATIKANING O‘ZARO VERBAL-VIZUAL MUNOSABATI

Nargiza MAMADJANOVA

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Andijon davlat universiteti
Andijon, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Tobora jadallashib borayotgan ilm olamida kinodiskurs tilshunoslikka kirib kelgan birmuncha yangi soha sifatida tadqiqotchilar qiziqishini tobora ko‘proq egallab bormoqda. Kinematografiyaning tarixiy taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, dastlabki filmlar hujjatli xarakterga ega bo‘lib, kundalik hayot lahzalarini, ya‘ni poyezdning kelishi, ishchilarning zavoddan chiqishi kabi sahnalarni aks ettirgan; ular qisqa va ovozsiz bo‘lgan. Keyinchalik kinoga fantaziya unsurlari va tryuk effektlari kirib kelib, uni “illyuzion” san‘atga aylantirdi. Rejissyorlar yaqin plan, montaj va hikoya qilish uslublarini bosqichma-bosqich rivojlantirib bordi; natijada komediya, vestern va drama kabi janrlar shakllandi.

Ovozsiz kino davrida his-tuyg‘ular asosan pantomima orqali ifodalangan bo‘lsa, ovozli kinoga o‘tish aktyorlar va rejissyorlar uchun yangi badiiy hamda texnik talablarni qo‘ydi. XX asrga kelib tomoshabinbop, maxsus effektlarga boy filmlar yaratila boshlandi, tasvirga olish, ovoz yozish va montaj jarayonlari esa raqamli formatga o‘tdi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi film diskursida pragmatikaning ahamiyatini, jumladan ma‘no shakllanishida verbal va vizual elementlar o‘rtasidagi munosabatni ochib berishdan iborat. Tadqiqotning asosiy vazifalari kinodiskursning lingvistik, kommunikativ va madaniy xususiyatlarini aniqlash, kino matnida pragmatik ma‘noning yuzaga kelish mexanizmlarini tahlil qilish, shuningdek, audiovizual matnlarning tarjima jarayonidagi o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotda tarixiy-madaniy, qiyosiy lingvokulturologik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kinematografiya shunchaki “tirik suratlar” majmuasi emas, balki murakkab badiiy tilga va tomoshabinga kuchli ta‘sir o‘tkazish salohiyatiga ega zamonaviy san‘at turidir. Tadqiqot natijalari kino matnida nafaqat semantik, balki pragmatik, lingvokulturologik va kommunikativ ma‘no mavjudligini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kino dialoglarini o‘rganish pragmatika, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik sohalarida muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, audiovizual matnlarni tarjima qilish va talqin etishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: kinodiskurs, kinematografiya, qiyosiy tahlil, kino dialoglari, pragmatika, kontekst, kommunikatsiya, verbal, neverbal.

ВЕРБАЛЬНО-ВИЗУАЛЬНЫЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПЕРЕВОДА И ПРАГМАТИКИ В КИНОДИСКУРСЕ

Наргиза МАМАДЖАНОВА

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Андижанский государственный университет
Андижан, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В стремительно развивающемся мире науки кинодискурс всё больше привлекает внимание исследователей как относительно новая область лингвистики. Историческое развитие кинематографа показывает, что первые фильмы носили преимущественно документальный характер и отражали моменты повседневной жизни – прибытие поезда, выход рабочих с завода; они были короткометражными и немymi. Позднее в кино появились элементы фантазии и трюковые эффекты, превратившие его в искусство иллюзии, а режиссёры постепенно развивали крупный план, монтаж и повествовательные техники, что способствовало формированию

таких жанров, как комедия, вестерн и драма.

В эпоху немного кино эмоции передавались главным образом посредством пантомимы, а переход к звуковому кино поставил перед актёрами и режиссёрами новые художественные и технические требования. В XX веке создавались всё более зрелищные фильмы, насыщенные спецэффектами, а процессы съёмки, звукозаписи и монтажа постепенно перешли в цифровой формат.

Основная цель данной статьи – раскрыть значение прагматики в кинодискурсе, прежде всего вербально-визуальные отношения, формирующие смысл в кинотекстах. Основные задачи исследования заключаются в выявлении лингвистических, коммуникативных и культурных особенностей кинодискурса, в анализе механизмов формирования прагматического значения в кинотексте, а также в изучении специфики перевода аудиовизуальных материалов между языками и культурами.

В работе использованы методы историко-культурного, сопоставительного лингвокультурологического и контекстуального анализа. Полученные результаты показывают, что современный кинематограф представляет собой не просто совокупность «живых картинок», а сложную форму искусства с богатым художественным языком и значительным воздействием на зрителя. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию кинотекста как носителя не только семантического, но и прагматического, коммуникативного и культурного значения.

В заключение можно отметить, что изучение кинодиалога имеет существенное значение для прагматики, лингвокультурологии и когнитивной лингвистики и закладывает основу для новых подходов к переводу и интерпретации аудиовизуальных текстов.

Ключевые слова: кинодискурс, кинематография, сопоставительный анализ, кинодиалоги, прагматика, контекст, коммуникация, вербальный, невербальный.

KIRISH

Mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifatga, xususan, ta'lim va ilm-fanga bo'lgan e'tibor davlat ahamiyatiga molik masalalar darajasiga ko'tarilgan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta egallagan, xorijlik hamkasblari bilan chet tillarda erkin muloqotga kirisha oladigan, ijodiy va tanqidiy fikrlay oladigan, jahon andozalariga munosib raqobatbardosh ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi har qachongidan ko'ra kengroq doirada ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida belgilanganidek, davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislar malakasini oshirishga ko'maklashish tilshunoslik fani oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir [O'zRes PQ-5117-son qarori, 2021]. Shu nuqtayi nazardan, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan o'zbek tilini boshqa dunyo tillari bilan chog'ishtirib o'rganish asnosida kinodiskurs tarjimasi matnni o'girish, qolaversa, tomoshabinga film mazmuni, g'oyasi va madaniy ruhini yetkazish vositasi sifatida qaralmoqda. Kinodiskursda tarjimaning pragmatik aspektini chog'ishtirma tahlil qilish, bu sohada samarali strategiyalarni aniqlash madaniyatlararo kommunikatsiya rivojiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi kinodiskursda pragmatikaning o'rni va ahamiyatini, xususan verbal va vizual elementlarning o'zaro ta'siri orqali ma'no qanday shakllanishini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari sirasiga kinodiskursni pragmatika va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganish, turli lingvistik va madaniy kontekstlarda ma'no yaratish mexanizmlarini aniqlash hamda kino

matnining tomoshabinga ta'sir kuchini oshirishda pragmatik strategiyalarning rolini tahlil qilish kiradi. Mazkur masalalar bugungi tilshunoslikda kinodiskursning fanlararo tabiatini yanada to'liq yoritishga xizmat qiladi.

Kinematografiyaning paydo bo'lishi insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Olam manzarasini idrok etishda kinematografiyaning roli va ta'siri yildan yilga kuchayib bormoqda. Natijada adabiyot ikkinchi asnoga o'tib qolmoqda. Hozirgi odamlarga filmni audiovizual tarzda idrok etish, kitob o'qishga vaqt va kuch sarflashdan ko'ra ancha oson. Shunday qilib, ilgari bosma matnlar orqali uzatilgan barcha ma'lumotlar zamonaviy dunyoda tobora ko'proq kinematografik shaklga ega bo'lmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikda diskurs til kategoriyasi sifatida tadqiqot obyektiga aylanib, tobora ko'proq olimlar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Globallashuv sharoitida kinodiskursda so'z va gaplarning ma'nosi, ularning qaysi kontekstda, kim tomonidan va qanday sharoitda ishlatilgani insonlar o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy va kommunikativ aloqalarni mustahkamlovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shu sababli kino tilini o'rganish bir vaqtning o'zida ham lingvistik, ham madaniy hodisa sifatida qaraladi: bir tomondan u tilning ishlash mexanizmlarini, ikkinchi tomondan esa muayyan xalqning dunyoni idrok etish tarzini namoyon etadi.

Kino tarjimasida an'anaviy badiiy matn tarjimasidan jiddiy farq qiladi, chunki u verbal matnni audiovizual kontekstga moslashtirishni talab etadi. Dublyajda tarjima nutqning artikulyatsion harakatlariga (lab sinxroniga), subtitrlashda esa ekranda ko'rinadigan vaqt va belgilar soniga moslashtiriladi. Bunday cheklovlar tarjimonni nafaqat semantik, balki pragmatik ekvivalentlikni ham saqlashga undaydi: personajning niyati, hissiy ohangi va madaniy ma'nodorligi maqsad tilida qayta tiklanishi lozim. Aks holda film o'zining ta'sir kuchini yo'qotadi va tomoshabin asl asar mualliflari ko'zlagan kommunikativ effektini qabul qila olmaydi.

Madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan kino o'ziga xos "madaniy elchi" vazifasini bajaradi: u bir xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va dunyoqarashini boshqa madaniyat vakillariga yetkazadi. Biroq bu jarayonda til to'sig'i va madaniy farqlar muqarrar ravishda yuzaga keladi. Pragmatik yondashuv aynan shu farqlarni hisobga olgan holda ma'noni qayta yaratish imkonini beradi, shu bois u kino tarjimasida nazariyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Kinodiskurs tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham maxsus o'rganilgan [Kholyk & Turovska, n.d.].

Kinodiskurs – insoniyat tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan to hozirgi kungacha to'plangan sivilizatsion qadriyatlarga mansub madaniyatning murakkab lingvosemiotik kommunikativ fenomenidir. Bundan tashqari, uning rivojlanishi axborot texnologiyalarining uzluksiz taraqqiyoti va inson hayotining kuchayib borayotgan virtualizatsiyasi tufayli uzoq kelajakka qaratilgan.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda jahon tilshunosligida kinodiskurs bir qator fanlararo yo'nalishlar doirasida o'rganilmoqda: pragmalingvistika kino dialogidagi nutqiy aktlar va ularning ta'sirchanligini, kognitiv tilshunoslik metafora, ramziy ma'nolar va bilim tuzilmalarini, sotsiolingvistika ijtimoiy

munosabatlar, dialekt va jinsga oid farqlarni, psixolingvistika kino tilining idrok etilishi va hissiy ta'sirini, lingvokulturologiya kino diskursini madaniyat va milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan, gender tilshunosligi personajlar nutqidagi gender farqlarini, korpus lingvistikasi katta hajmdagi kino matnlarining statistik tahlilini, multimodal tahlil esa kino diskursining vizual, auditor va verbal komponentlarini birgalikda o'rganadi. Tarjima nazariyasi va amaliyoti kino tarjimasida (subtitrlar, dublyaj) yuzaga keladigan muammolarni hal qiladi. Har bir yondashuv kino tilining ma'lum bir jihatini yoritadi va ularning kombinatsiyasi kinodiskursning to'liq manzarasini taqdim etadi.

Kinodiskursni pragmatika nuqtai nazaridan chuqurroq o'rganish turli lingvistik va madaniy kontekstlarda ma'no yaratish, o'zgartirish va qabul qilish mexanizmlari haqida muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Filmlar og'zaki va vizual elementlarning murakkab o'zaro ta'siriga tayanadi; bunda pragmatika dialoglarni talqin qilish, personajlarning o'zaro munosabati va tomoshabinlar e'tiborini jalb qilishga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni kino matnlari sohasida pragmatika tilni kontekstga tayangan holda o'rganib, milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarni saqlagan holda ma'nolarni to'g'ri yetkazish jarayonidir.

Shunday qilib, kinodiskursni pragmatik tahlil qilish nafaqat kino tilining ichki tuzilishini, balki uning tomoshabin ongida qanday ma'no hosil qilishini ham ochib beradi. Bu yondashuv kino matnini chuqur va ko'p qirrali tushunishning ishonchli asosini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili

Hozirgi kunda kinodiskursning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish bo'yicha jahon va yurtimiz olimlari tomonidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Kinoga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar rus tilshunosi Y.M. Lotman tomonidan olib borilib, u kinofilmni semiotika nuqtai nazaridan tadqiq qilgan [Lotman, 1973]. Keyinchalik kinodiskursga oid nazariy va amaliy izlanishlar G.G. Slishkin, M.A. Yefremova, Y.A. Kolodina, A.N. Zaretskaya, B.Y. Goroshkova, V.Konetskaya kabi rus tilshunoslari tomonidan tilshunoslikning turli sohalarida tadqiq qilingan [Slishkin & Yefremova, 2004].

Jahon tilshunosligida kinodiskurs hamda unda pragmatika va tarjima masalalariga bag'ishlangan S.Zaychenko, P.Grays, A.Bayzin, G.Yul, Y.Gambye, T.Leytch, P.Kattris, F.Chaume, M.Beyker, S.Bassnet, E.Gutt kabi xorijlik olimlarning nazariy qarashlari mazkur izlanishda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, pragmatika sohasida G.Yul va Dj.Ostinning, tarjima hamda audiovizual tarjima nazariyasi sohasida esa M.Beyker, S.Bassnet, E.Gutt, F.Chaume va Y.Gambyening ishlari muhim nazariy ahamiyatga ega [Yule, 1996; Austin, 1962; Baker, 1992; Bassnett, 2002; Gutt, 2000; Chaume, 2012; Gambier, 2013]. Vatanimiz tilshunoslaridan M.Rabiyeva, A.Ollomurodov, N.Barotova, S.Ganiyeva, G'.Bekboyeva, M.Berdiyev, D.Usmonovlar ilmiy izlanishlar olib borganlar [Ollomurodov, 2023].

Xususan o'zbek tarjimashunosligi haqida so'z yuritish ekanimiz, G'aybulla as-Salomni e'tirof etish o'rinli deb hisoblaymiz. O'zbek tarjimashunosligini shakllantirishda bu olimning salmoqli mehnatlari bor. U (G'aybulla as-Salom) tarjimani shunchaki bir tildan ikkinchi tilga o'girish emas, balki madaniyatlararo

muloqot vositasi sifatida ilmiy asosda o'rganganligi fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

O'zbek tilshunosligida kinodiskurs nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, uning nazariy asoslari va tahlil metodlari hozirgi kunda faol ishlab chiqilmoqda. Milliy kinematografiya namunalarini hamda xorijiy filmlarning o'zbekcha tarjimalarini pragmatik nuqtai nazardan o'rganish o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini, milliy mentalitet va madaniy qadriyatlarining til orqali namoyon bo'lishini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu ma'noda mazkur tadqiqot o'zbek tilshunosligida kinodiskurs tahlilining nazariy-metodologik bazasini boyitishga qaratilgan. Muallifning ilgari ishlarida kinoda pragmatik va madaniy ifoda o'rtasidagi aloqa hamda film va teleseriallardagi lingvistik xilma-xillik masalalari yoritilgan [Mamadjanova, 2025, 2026].

S. Levinson ta'rifiga ko'ra, pragmatika tilshunoslikning yaqinda shakllangan sohasi bo'lib, u semantik nazariya to'liq qamrab ololmaydigan ma'no jihatlarini o'rganadi [Levinson, 1997]. Bu fan til va kontekst o'rtasidagi munosabatga, ayniqsa, nutq vaziyatini o'rab turgan holatlarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, u "yashirin ma'no" tushunchasini tadqiq qiladi, ya'ni tinglovchilar so'zlovchining xabarini hatto u aniq ifodalanmagan yoki yozilmagan bo'lsa ham qanday tushunishini o'rganadi.

Pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri – nutqiy akt nazariyasi kino dialogini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir gap nafaqat ma'lum bir mazmunni ifodalaydi (lokutiv akt), balki muayyan harakatni amalga oshiradi (illokutiv akt) va tinglovchida ma'lum natijani keltirib chiqaradi (perlokutiv akt). Filmda personajning iltimosi, buyrug'i, va'dasi yoki tahdidi aynan shu illokutiv kuch orqali ma'no kasb etadi. Tomoshabin esa personaj so'zlarining ko'zda tutilgan maqsadini kontekst, ovoz ohangi va vizual ishoralar yordamida anglaydi. Shu bois kino matnida bir xil leksik mazmunga ega gap turli sahnalarda butunlay boshqa pragmatik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Pragmatikaning yana bir muhim tushunchasi – presuppozitsiya kino matnida tomoshabinning oldindan ega bo'lgan bilimiga tayanadi. Personajlar ko'pincha ochiq aytilmagan, ammo kontekstdan kelib chiqadigan ma'lumotlarni nazarda tutib gapiradi va tomoshabin bu yashirin asoslarni o'zi tiklaydi. Shu tariqa film tomoshabinni passiv kuzatuvchi emas, balki ma'no yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu hamkorlik kino diskursining boshqa diskurs turlaridan ajralib turadigan o'ziga xos kommunikativ tabiatini belgilaydi.

Lunenberg ta'kidlashicha, kommunikatsiya – bu ijtimoiy kontekstda sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir bo'lib, unda yuboruvchi (manba) va qabul qiluvchi ishtirok etadi. Bunda suhbatdoshlar grafik, og'zaki, vizual yoki imo-ishorali signallarni almashadi. Mohiyatan, muloqot tana harakati, ko'z qarashlari yoki ovoz tovushlaridan foydalangan holda kodlarni qo'llashni nazarda tutadi. I. Daniel fikriga ko'ra, qabul qiluvchi ma'no almashinuvinin yangi bosqichini boshlab, signalga javob berganida aloqa jarayoni tugallangan holatga erishadi va bu o'z navbatida yuboruvchiga uzatiladi [Daniel, 2013]. Ushbu dinamika muloqotning ikki tomonlama xususiyatini ta'kidlaydi va uni og'zaki hamda og'zaki bo'lmagan turlarga ajratadi.

Og‘zaki muloqot so‘zlashuv tili orqali g‘oyalar yoki ma’lumotlarni uzatish sifatida ta’riflanadi. U so‘zlar, tovushlar, nutq va tilni o‘z ichiga oladi hamda notiqlik va shaxslararo muloqotga bo‘linadi. Shaxslararo muloqot odamlar bevosita o‘zaro aloqaga kirishganda, ko‘pincha g‘oyalar, qarashlar va his-tuyg‘ular almashinuvini o‘z ichiga olgan holda sodir bo‘ladi. Bu holatda muloqot norasmiy tusga kiradi; biroq bu erkinlik so‘zlovchi va tinglovchini boshqaradigan ijtimoiy me’yorlar bilan cheklanadi. Aksincha, ommaviy nutq katta auditoriyaga xabar yetkazishni nazarda tutadi va yanada rasmiy xususiyat kasb etadi. Og‘zaki muloqot ma’noni osonlashtirish, tushunishning yuqori darajasiga erishish hamda zudlik bilan fikr-mulohaza olish uchun noverbal elementlar va vizual vositalarni o‘z ichiga olishi mumkin [Daniel, 2013]. Kundalik muloqotdagi konvensional nutqiy iboralar va klishelar esa kino dialogiga tabiiylik baxsh etib, personajlar nutqini hayotiy ko‘rsatishga xizmat qiladi [Aijmer, 1996].

Noverbal muloqot so‘zlar bilan emas, balki boshqa xabarlar orqali ma’no uzatish sifatida ta’riflanadi. U ovoz ohangi, hid, tegish va tana harakatlari kabi turli jismoniy shakllarni, shuningdek musiqa, tasviriy san’at, raqs, teatr va haykaltaroshlik kabi shakllarni qamrab oladi. Yuz ifodalari, imo-ishoralar, ovozlar va kiyim-kechak kabi noverbal belgilar muhim ma’lumotlarni yetkazadi. Noverbal muloqotning yorqin misoli sifatida imo-ishora tilini keltirish mumkin; u yoshi, jinsi yoki kelib chiqishidan qat’i nazar barcha odamlar uchun tushunarlidir.

J.Uilson ta’kidlaganidek, ko‘pchilik belgilar ma’lum bir kontekstda turli xabarlarini yetkazish uchun ishlatilishi mumkin [Wilson, 1972]. U belgilarni talqin qilish belgilardan foydalanuvchilar o‘rtasidagi o‘rnatilgan qoidalar va o‘zaro tushunishga bog‘liqligini tushuntiradi. B.Goss noverbal imo-ishoralarni qo‘llar, bilaklar, oyoqlar, gavda va tananing boshqa asosiy mushak guruhlarining harakatlari deb ta’riflaydi [Goss, 1983]. Shu sababli noverbal kommunikativ imo-ishoralar va tana harakatlarini o‘zlashtirish til kompetensiyasini egallashdan oldin sodir bo‘lishi mumkin.

Ushbu qismning asosini kinematografiya tilini faqat vizual unsurlarning qo‘shimchasi emas, balki ma’noni multimodal diskurs orqali shakllantirishda vizual tekislik bilan dinamik o‘zaro ta’sirda ishlayotgan verbal elementlar sifatida tan olish tashkil etadi. Pragmatik nuqtai nazardan kino dialogi alohida komponent emas, balki ma’no qanday yaratilishi va tomoshabinlar tomonidan qanday talqin qilinishining ajralmas qismidir. Vagstaff ta’kidlaganidek, filmlar shunchaki voqelikning audio-vizual yozuvlari emas; ular hikoyani yetkazish, muayyan javobni uyg‘otish va xabarni kodlash uchun tasvirlar va tovushlarni ongli ravishda tanlaydigan tuzilgan diskurslardir [Wagstaff, 1996]. Bu tizimda dialogning tomoshabinlar idrokini shakllantirishdagi roli hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u talqinni yo‘naltiradi, kontekstual ma’noni belgilaydi va qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasini o‘rnatadi.

Og‘zaki va vizual usullarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinganda ularning o‘zaro ta’siri orqali ma’no qanday birgalikda yaratilishi va tomoshabinlar bu ko‘p qirrali ishoralarni qanday tushunishi alohida ta’kidlanadi. Kino dialogini pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish til ishlatilishi, ayniqsa ziddiyatli vaziyatlarda, tomoshabinlarning jalb qilinishi va talqin qilish usullariga qanday ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatib beradi.

Kino diskursini pragmatik va ko'p qirrali doiralarda o'rganish orqali ushbu tadqiqot kino hikoyalari va tomoshabinlar idrokini shakllantirishda og'zaki va vizual elementlarning murakkab aloqasini ta'kidlaydi.

Filmlardagi dialogning tasvirlarga nisbatan tahlili kino doirasidan tashqariga chiqib, turli kommunikativ kontekstlarda og'zaki va vizual elementlarning o'zaro ta'siri haqidagi keng qamrovli muhokamaga aylanadi. S.Morli zamonaviy san'atda yozuv va chizmachilik o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganib, turli semiotik tizimlar ma'no yaratishga qanday hissa qo'shishini ta'kidlagan [Morley, 2003]. Shunga o'xshash tarzda, J.Xanter fotosuratlar va matn elementlari o'rtasidagi funksional munosabatlarni o'rganib, XX asrda fotografik va adabiy uslublar qanday qilib izchil va sinxron munosabatlarni rivojlantirganini tekshirgan [Hunter, 1987]. Uning tahlili ma'lum yozuvchilarning adabiy uslubi va muayyan fotografiya texnikasi o'rtasida parallel chizib, talqinni shakllantirish uchun vizual va verbal usullarning o'zaro ta'sir qilish yo'llarini ta'kidlaydi.

Bu tadqiqotlar tasviriylar san'at sohasiga tegishli bo'lsa-da, ularning ahamiyati kinoga ham taalluqlidir, chunki kino san'atida ham verbal va vizual elementlar qatlamli diskurs orqali ma'noni birgalikda yaratadi. Audiovizual vosita sifatida kino dinamik tarzda ishlaydi: dialog va tasvirlar tomoshabinlar talqinini yo'naltirish uchun uyg'unlikda harakat qiladi. Pragmatik va ko'p modallik nuqtai nazaridan yondashish kinoda verbal va vizual kodlarning o'zaro bog'liqligini ochib beradi: dialog nafaqat tasvirlarni to'ldiradi, balki hikoya izchilligi, tomoshabinlar ishtiroki va kontekstual talqiniga ham ta'sir ko'rsatadi.

Multimodal tahlil nuqtai nazaridan kino matni bir vaqtning o'zida bir nechta semiotik kanal orqali ma'no uzatadi: verbal (dialog, ekrandagi yozuvlar), auditor (musiqa, shovqin, intonatsiya) va vizual (kadr kompozitsiyasi, rang, yorug'lik, personaj harakati). Bu kanallarning har biri mustaqil ma'no tashuvchi sifatida ishlaydi, biroq ularning to'liq ma'nosi faqat o'zaro birikuvda namoyon bo'ladi. Shu bois kino diskursini tahlil qilishda biror kanalni alohida o'rganish yetarli emas; tadqiqotchi ularning o'zaro ta'siri orqali yuzaga keladigan umumiy pragmatik effektini hisobga olishi zarur.

Kino tilining tarixiy rivojlanishi ham pragmatik nuqtai nazardan qiziqish uyg'otadi. Ovozlessiz kino davrida ma'no asosan vizual vositalar – mimika, imo-ishora va pantomima orqali uzatilgan bo'lsa, ovozli kinoning paydo bo'lishi bilan og'zaki dialog ma'no yaratishning markaziy vositalaridan biriga aylandi. Shunga qaramay, vizual qatlam o'z ahamiyatini yo'qotmadi, balki dialog bilan birgalikda ko'p qatlamli kommunikativ tizimni shakllantirdi. Demak, kino tarixining har bir bosqichi verbal va vizual elementlar o'rtasidagi munosabatning o'ziga xos modelini taklif etadi.

S.Kozloff o'rinli ta'kidlaganidek, film dialogi tomoshabinlar eng yaxshi farazlarni chiqarishi uchun ataylab ishlab chiqilgan, biroq filmlar so'zlarning aslida ekrandan tashqaridagi tinglovchi uchun mo'ljallanganligini yashiradi [Kozloff, 2000]. Tomoshabinning film bilan muloqotining bir qismi dialogning ekrandan tashqaridagi tinglovchi uchun mo'ljallanganligi haqidagi taxmindir; bu esa tomoshabin xayolida umumiy badiiy dunyoni yaratishda hamkorlikdagi harakatlarni rag'batlantiradi.

Demak, dialog pragmatik doirada ishlaydi, unda tinglovchilar kontekstual belgilar orqali ma'noni anglaydi va bevosita diegetik makondan tashqariga chiquvchi talqin jarayonida ishtirok etadi.

Kinodagi verbal-vizual munosabatni sinxronlik nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin, ya'ni tasvirlar va so'zlar izchillikni yaratish uchun vaqt va hikoya jihatidan qanday moslashadi. R.Xobbs yangiliklar dasturining ikki versiyasini tomoshabinlarga taqdim etish orqali verbal-vizual sinxronlikning kognitiv ta'sirini o'rgangan: birida tasvirlar bevosita so'z mazmuniga mos kelgan, boshqasida esa ular o'rtasidagi aloqa nomuvofiq bo'lgan [Hobbs, 1985]. Natijalar shuni ko'rsatadiki, verbal va vizual elementlar sinxronlashtirilganda tushunish kuchayadi; bu esa multimodal bog'liqlik ma'noni mustahkamlaydi degan g'oyani tasdiqlaydi.

M.Lipsonning 2003-yildagi Iroq urushi haqidagi yangiliklar tahlili bu hodisaning yorqin misolidir [Lipson, 2008]. U televideniye muxbirlari o'z og'zaki bayonotlarini to'ldiruvchi va kuchaytiruvchi vizual materiallarni qanday sinchkovlik bilan tanlaganligini ko'rsatadi. Bu tanlov xolis emas; u jurnalistlarning qarashlari va maqsadlariga bog'liq bo'lib, muayyan g'oyalar yoki hissiy munosabatlarga mos keladigan diskursni shakllantiradi. Bunday tanlovlar tomoshabinlarning voqelik haqidagi tasavvurlarini boshqarish qobiliyatiga ega bo'lganligi sababli, tasvirlar va so'zlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tushunish zarur.

U.Meinxof OAV diskursida og'zaki va ko'rish elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniq tan olish zarurligini ta'kidlaydi [Meinhof, 1994]. Ushbu munosabatlarni qoplanish, siljish va dixotomiya sifatida ajratib, u filmlar va yangiliklar xabarlarini qanday qilib murakkab g'oyalarni yetkazishini o'rganish uchun asos yaratadi. Voqealarning bir-birini qoplashi og'zaki matnlar va vizual tasvirlar umumiy harakat yoki mavzuni aks ettirganda yuzaga keladi va yaxlit hikoyani yaratadi. Voqealarning bir-biridan uzoqlashishi, aksincha, og'zaki va ko'rish elementlari o'rtasida nomuvofiqlikni keltirib chiqaradi, bu esa noto'g'ri talqin yoki tushunmovchilikka olib kelishi mumkin [Poole, 1994]. Eng katta uzilish dixotomiya bilan ifodalanadi, bu yerda og'zaki bayonlar va ko'rish tasvirlari mutlaqo bog'liq emasdek tuyuladi.

Pragmatik yondashuv kino diskursi doirasida og'zaki va ko'rish elementlari alohida kommunikativ maqsadlarga xizmat qilishi g'oyasini ta'kidlaydi [Scollon & LeVine, 2004]. Ushbu elementlarning bir-biri bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini o'rganish orqali kino hikoyalari to'qimasida joylashgan yashirin ma'nolar va ijtimoiy oqibatlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Masalan, vizual tasvirlar va dialoglarning strategik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi qo'yilishi dolzarb siyosiy masalalar yoki ijtimoiy voqealar bo'yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishi mumkin.

Kino diskursida personajlar nutqi ularning ijtimoiy mavqei, jinsi, yoshi va madaniy mansubligini ham namoyon etadi. Sotsiolingvistik va gender nuqtai nazaridan qaralganda, dialogdagi murojaat shakllari, leksik tanlov va nutq odoblari muayyan ijtimoiy munosabatlarni – hokimiyat, yaqinlik yoki masofani ifodalaydi. Pragmatika bu belgilarni kontekst bilan bog'lab tahlil qilar ekan, tomoshabin personajlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini va ularning ijtimoiy rolini chuqurroq anglashiga yordam beradi. Shu tariqa kino tili nafaqat individual muloqotni, balki

butun bir jamiyatning til va madaniyat manzarasini aks ettiradi.

Meinsofning qoplash, siljish va dixotomiya kategoriyalari mediada ogʻzaki va vizual elementlar orasidagi uygʻunlik yoki farqlanishni tahlil qilish uchun asosiy nuqtai nazarni taqdim etadi. Biroq kinematografiya koʻpincha bu toifalardan tashqariga chiqib, koʻp qatlamli hikoyalar va psixologik teranlikni yaratish uchun nosinxron munosabatlardan foydalanadi. Liliana Kavanining “Il Portiere di Notte” (1974) va Ann Fontenning “Nathalie...” (2003) filmlari bunday nomuvofiqliklar mavzuvii va hissiy taʼsirchanlikni qanday kuchaytirishi mumkinligini yorqin tarzda koʻrsatib beradi. Kavanining filmida Maksning kontslagerdagi xotiralari soʻzsiz, parchalangan tasvirlar orqali namoyon etilib, tomoshabinni qahramonning hal etilmagan hissiy iztiroblariga gʻarq qiladi; Fontenning filmida esa ogʻzaki ustunlik haqiqat va uydirmani xiralashtirish uchun ishlatilib, ogʻzaki nutq ayollar faolligining quroli sifatida joylashtiriladi.

“Il Portiere di Notte” filmida Kavani jarohat va xotirani oʻrganish uchun ogʻzaki va vizual vositalar oʻrtasidagi keskin tafovutdan foydalanadi. Maksning kontslagerdagi Lyusiya bilan munosabati haqidagi xotiralar ogʻzaki izohsiz, parchalangan va vahimali tasvirlar orqali namoyon etiladi. Ogʻzaki bayonning yoʻqligi tomoshabinni qahramonning hal etilmagan hissiy iztiroblariga gʻarq qiladi va uning oʻtmishini ham taʼsirchan, ham soʻz bilan ifodalab boʻlmaydigan tarzda taqdim etadi. Boshqa sahnada Maksning xabarchini oʻldirish haqidagi sovuqqon hikoyasi uning ifodasiz yuzi va qurbonning uzoqdagi faryodi bilan birga keladi. Bu siljish – audio va vizual tasvirlarning bilvosita bogʻlanishi qahramonning oʻz jinoyatlaridan ruhiy uzoqlashganini taʼkidlaydi va xotira shafqatsizligini quruq, klinik soʻz bilan qarama-qarshi qoʻyadi.

“Nathalie...” filmida esa Fonten haqiqat va uydirmani xiralashtirish uchun ogʻzaki ustunlikdan foydalanadi. Natalining Ketrin eri bilan uchrashuvlari haqidagi toʻqima hikoyalari juda oz vizual tasdiq bilan, asosan ogʻzaki tarzda yetkaziladi. Bu qarama-qarshilik Ketrinning xayoloti va “haqiqat” oʻrtasidagi farqni koʻrsatadigan ikkinchi darajali hikoya qatlamini yaratadi. Ogʻzaki va vizual oʻrtasidagi boʻshliq bosh qahramonning voqelikni oʻzgartirishini aks ettiradi va Natalining aldovi fosh etilishi bilan yakunlanadi. Bu filmlar sinxronlikni kamchilik sifatida emas, balki ongli ravishda qoʻllanilgan hikoya va psixologik vosita sifatida ishlatib, kinoning maʼno yaratishdagi keng imkoniyatlarini namoyon etadi.

Kino diskursidagi pragmatika verbal va vizual muloqotga singdirilgan yashirin maʼnoga taalluqli boʻlib, u ochiqcha aytilganidan koʻra koʻproq maʼnoni ifodalaydi. Kinoda bu nafaqat ogʻzaki dialogni, balki maʼno shakllanishiga hissa qoʻshadigan imo-ishoralar, yuz ifodalari va boshqa vizual elementlarni ham oʻz ichiga oladi. Rejissyorlar kuch dinamikasi yoki hissiy holatlarni oshkora aytmasdan koʻrsatadigan elementlarga tomoshabinlar eʼtiborini qaratish uchun pragmatik strategiyalardan foydalanadilar [Fink, 1982]. Masalan, personajning tana tili, nigohi yoki yaqin rejadagi yuz ifodasi hukmronlik, zaiflik yoki tajovuzkorlikni nozik tarzda ifodalashi va tomoshabinni personajning roli yoki niyatlarini tushunishga yoʻnaltirishi mumkin.

Bu dinamikani tahlil qilishda Ostin va P.Grays tomonidan taklif qilingan modellar

filmdagi muloqotni boshqaradigan implikaturalar va suhbat maksimalarini tushunish uchun qimmatlidir [Grice, 1978]. Bu modellar orqali filmlarning pragmatikadan kuch munosabatlarini nozik tarzda qurish, tomoshabinlar tasavvurini shakllantirish va hikoya qilishni kuchaytirish uchun qanday foydalanishini tushunish mumkin. Ushbu ogʻzaki-vizual oʻzaro bogʻliqlik kino tajribasini boyitadi va uni aniq aytilganidan tashqari chuqurroq maʼnolarni yetkazishning kuchli vositasiga aylantiradi.

P.Graysning hamkorlik prinsipi va suhbat maksimalari (miqdor, sifat, munosabat hamda uslub maksimalari) kino dialogini talqin qilishda samarali vosita hisoblanadi. Personajlar koʻpincha bu maksimalarni ataylab buzadi: javobni choʻzish, mavzudan chetga chiqish yoki noaniq ifodalardan foydalanish orqali yashirin maʼno – implikatura hosil qiladi. Tomoshabin esa buzilgan maksima ortidagi koʻzda tutilgan maʼnoni anglab, personajning haqiqiy niyatini tushunadi. Masalan, savolga toʻgʻridan toʻgʻri javob bermaslik personajning ikkilanishi, qoʻrquvi yoki yolgʻonini koʻrsatishi mumkin. Bunday holatlar kino dialogining yuzaki mazmunidan tashqari chuqur psixologik qatlarga ega ekanligini namoyon etadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kino diskursini oʻrganishda verbal va vizual elementlarni bir-biridan ajratib boʻlmaydi. Aksincha, ular yagona multimodal tizimning teng huquqli tarkibiy qismlari sifatida birgalikda maʼno yaratadi. Pragmatik yondashuv aynan shu birlikni hisobga olib, kino matnining yuzaki mazmuni ortidagi yashirin maʼnolarni, kommunikativ niyatlarni va ijtimoiy-madaniy oqibatlarni ochishga imkon beradi. Shu bois mazkur tadqiqotda pragmatika kino tahlilining markaziy metodologik asosi sifatida tanlandi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, strukturaviy yondashuv va pragmatik transformatsiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini film dialogida matn tahlili, pragmatika hamda kino diskursida audio-vizual munosabatlar yondashuviga oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

Birinchi bosqichda pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, gender tilshunosligi, korpus lingvistikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti kabi sohalarining ushbu tadqiqotga bogʻliqligi koʻrib chiqildi. Ushbu yondashuv orqali kinodiskursni har tomonlama tahlil qilish imkoniyati kengligi isbotlandi va har bir yondashuv kino tilining maʼlum bir jihatini yoritishi hamda ularning kombinatsiyasi kinodiskursning toʻliq manzarasini taqdim etishi aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda S.Levinson taʼrifiga koʻra pragmatika til va kontekst oʻrtasidagi munosabatga, ayniqsa nutq vaziyatini oʻrab turgan holatlarga eʼtibor qaratilishi jihatidan tahlil qilindi [Levinson, 1997]. Tahlil jarayonida kino matnidagi “yashirin maʼno” tushunchasi tadqiq qilindi, yaʼni tinglovchilar soʻzlovchining xabarini hatto u aniq ifodalanmagan yoki yozilmagan boʻlsa ham toʻgʻri anglashi oʻrganildi.

Uchinchi bosqichda filmdagi verbal-vizual oʻzaro munosabatlarda pragmatikaning aralashuvi tahlilga tortilib, bu kinodiskursni shakllantirishdagi murakkab

usullarni yaqqol namoyon etishi aniqlandi. Ushbu dinamikani tushunish media matnlarini yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi, shuningdek, ularning tasviriy vositalar va tildan strategik foydalanish orqali ma'no yaratishi ochib berildi.

Tadqiqot materiali sifatida turli janrdagi badiiy filmlardan olingan dialog parchalari, shuningdek ularning o'zbek va rus tillariga qilingan tarjimalari (dublyaj va subtitrlar variantlari) tanlab olindi. Qiyosiy lingvokulturologik tahlil orqali asl matn va tarjima o'rtasidagi pragmatik mosliklar hamda tafovutlar aniqlandi. Tarixiy-madaniy metod esa kinematografiya tilining shakllanish bosqichlarini va uning ifoda vositalari qanday rivojlanganini izchil yoritishga imkon berdi.

NATIJALAR

Kino paydo bo'lganidan beri inson tajribasini chuqur o'rganadi. Audiovizual san'at vositasi sifatida filmlar ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish orqali jamiyatga sezilarli hissa qo'shadi. Ular turmush tarzi, atrof-muhit va davrning vizual xususiyatlarini idrok etish imkonini beruvchi vosita vazifasini bajaradi, shu tariqa davr ruhini aks ettiradi. Ekranda voqealarni tasvirlash orqali film nafaqat dunyoni aks ettiradi, balki uni hujjatlashtirish jarayoniga ham hissa qo'shadi va jamiyatning vizual xotirasini shakllantiradi. Filmlar va ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy tasavvur hamda munosabatlarni shakllantirishdagi roli turli madaniy kontekstlarda o'rganilgan [Mary & Bullard, 2018; Chatterji, 1999]. Darhaqiqat, bu ta'rifni dastlabki film davriga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, chunki dastlabki filmlar qisqa metrajli (10 daqiqa), ovozsiz, qo'shimcha akustik tovushlarsiz, musiqasiz, rangsiz (oq-qora formatda) va harakatsiz kameralar orqali suratga olingan. Ammo yillar davomida barcha sohalaridagi rivojlanish kino sohasida ham jadal tus oldi va bugun kino yaratish san'at darajasiga tenglashdi.

Aslida dastlabki kinolar (XX asrning boshlarida) tomoshabinni hayratga solish maqsadida yaratilgan bo'lib, aynan shu sababli A.Godro dastlabki estetikani "attraksion" deb atagan. Bugunga kelib kinodagi voqeliklarga illyuzion tus berilib, natijada bir yoki bir necha qismli filmlar, seriallar, dublyaj san'ati, tarjimonlar mehnati, film jarayonidagi musiqa va qo'shiq (soundtrack), rang-barang tasvirlar, turli lokatsiyalar hamda cheksiz harakatli kameralar film iste'molchilari auditoriyasini tobora kengaytirib bormoqda. Bu esa tadqiqotchilarning ham qiziqishlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, verbal va vizual elementlarning sinxron yoki nosinxron joylashuvi tomoshabin idrokini bevosita boshqaradi. Sinxron munosabatda matn va tasvir ma'noni mustahkamlab, tushunishni osonlashtirsa, nosinxron munosabatda – siljish va dixotomiyada – rejissyor qo'shimcha psixologik teranlik va ko'p qatlamli ma'no hosil qiladi. Shu tariqa pragmatik strategiyalar kino matnida ma'noni nafaqat uzatish, balki tomoshabin ishtirokini faollashtirish vositasiga aylanadi.

Tadqiqot natijalari verbal va vizual elementlar o'rtasidagi munosabatni uch asosiy turga ajratish mumkinligini ko'rsatdi. Birinchi turda – qoplanishda – so'z va tasvir bir xil mazmunni ifodalab, ma'noni mustahkamlaydi va tomoshabin tushunishini

osonlashtiradi. Ikkinchi turda – siljishda – og‘zaki va vizual qatlamlar bilvosita bog‘lanib, qo‘shimcha ma’no qatlamlari hosil qiladi. Uchinchi turda – dixotomiyada – so‘z va tasvir o‘rtasida ataylab qarama-qarshilik yaratilib, tomoshabinda taranglik, shubha yoki ironiya hissi uyg‘otiladi. Aynan oxirgi ikki tur kino tilining badiiy boyligini va pragmatik salohiyatini eng yorqin namoyon etadi.

Tahlil shuni ham ko‘rsatdiki, kino dialogining og‘zaki tabiati uni yozma matndan farqli o‘laroq intonatsiya, pauza, ovoz tembri va tezligi kabi paralingvistik vositalar bilan boyitadi. Bu vositalar ko‘pincha so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini o‘zgartirib, hatto unga zid ma’no berishi mumkin. Masalan, ironik intonatsiya bilan aytilgan maqtov aslida tanqid yoki masxarani ifodalaydi. Tomoshabin bunday nozik farqlarni vizual kontekst va personajning oldingi xatti-harakatlariga tayanib ilg‘aydi. Shu sababli kino tarjimasida paralingvistik ma’nolarni saqlash alohida murakkablik tug‘diradi va tarjimondan yuksak pragmatik sezgirlikni talab etadi.

Shuningdek, natijalar kino dialogining pragmatik ta’siri tarjima jarayonida sezilarli darajada o‘zgarishi mumkinligini tasdiqladi. Manba tildagi implikatura, madaniy alluziya yoki so‘z o‘yini maqsad tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmaganda, tarjimon pragmatik moslashtirish strategiyalariga murojaat qiladi. Bunday hollarda asosiy vazifa so‘zlarning lug‘aviy mazmunini emas, balki ularning kommunikativ va hissiy ta’sirini saqlab qolishdan iborat bo‘ladi. Aks holda tomoshabin film mualliflari ko‘zlagan ma’noni to‘liq qabul qila olmaydi.

O‘zbek kinematografiyasida 2018-yilda suratga olingan “Scorpion” filmidan misollar olsak: Bunda vaqtga bog‘liq iboralar, shaxs nomlari va boshqa madaniy nozik unsurlarga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa zamonaviy o‘zbek kinosida audiovizual tarjima orqali ko‘p tillilikni qanday vositachilik qilinishini chuqur tushunishga hissa qo‘shadi. Bunday holatlarda biz tarjima strategiyalarini tasniflashni taklif qilgan bo‘lar edik.

Vaqtga oid pragmatik nomuvofiqliklar kategoriyasi:

1. *Ikki muammo chiqib qoldi, o‘rtoq general. – General, we’ve got problems.* O‘zbekchada “ikki muammo” aniq ko‘rsatilgan va “o‘rtoq general” deb murojaat qilingan, bu esa muammoning jiddiyligini va rahbariyatga hurmatni ifodalaydi. Inglizcha subtitrdada esa, raqamli tafsilot va “o‘rtoq” so‘zi tushirib qoldirilib, muammo “bizda muammolar bor” deb umumlashtirilgan. Bu pragmatik o‘zgartirish ifodani soddalashtiradi va tezkorlikni oshiradi, ingliz tilida harakatga asoslangan dialog uchun mos keladigan shoshilinchlik hissini yaratadi.

2. *Xavfsizlik tizimini qayd qilishicha, Skorpionga tegishli bo‘lgan barcha ma’lumotlar kechqurun soat 10 da Soliyevning kompyuteridan beruxsat ko‘chirib olingan. – The security system found that the documents regarding the Scorpion were downloaded without authorization from the computer of Saliev. Yesterday at 10.30 p.m.*

O‘zbekcha matndagi ko‘rsatilgan vaqt “soat 22:00” bo‘lsa, inglizcha versiyada “soat 22:30” deb berilgan. Bu ikki versiya o‘rtasida 30 daqiqalik tafovut mavjud. Bunday holatlarda, ayniqsa tergov tafsilotlari uchun aniqlik muhim bo‘lgan vaziyatlarda, vaqt ko‘rsatkichi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur nomuvofiqlik tarjima jarayonida

yo'l qo'yilgan xato yoxud moslashtirishda ataylab soddalashtirilgani oqibatida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin

3. *Demoqchisanki, 5000 kilometr yo'l bosin ukang bilan uchrashdingu, lekin u bilan gaplashmading, shundaymi? – Are you saying that you've traveled 10000 kilometers, saw your brother and didn't talk to him?*

Bu misol miqdoriy kuchaytirishni va ritorik urg'uning o'zgarishini ko'rsatadi. O'zbekcha satrda masofa 5000 kilometr deb ko'rsatilgan bo'lsa, inglizcha subtitrd bu masofa 10000 kilometrgacha oshirilgan, ya'ni asl matnga xos bo'lmagan mubolag'a kiritilgan. Bu raqamli oshirish savolning hissiy ishonchsizligini kuchaytiradi, ehtimol, ingliz kinematografiyasida kutilgan dramatik ohangga mos kelish uchun qilingan.

Bundan tashqari, natijalar tomoshabinning hissiy va kognitiv reaksiyasi verbal va vizual elementlarning uyg'unligiga bevosita bog'liqligini tasdiqladi. Sinxron taqdim etilgan ma'lumot tezroq va aniqroq idrok etilsa, nomuvofiq taqdimot tomoshabinni qo'shimcha aqliy faollikka undaydi va talqin jarayonini murakkablashtiradi. Rejissyorlar bu qonuniyatdan badiiy maqsadlarda – saqlanish (suspens), ajablanish yoki ironiya effektini yaratishda foydalanadilar. Shu tariqa kino tilining pragmatik salohiyati nafaqat ma'no uzatishda, balki tomoshabin diqqatini boshqarish va uning hissiy holatini shakllantirishda ham namoyon bo'ladi.

Zamonaviy kino texnologiyalarining rivojlanishi – raqamli tasvir, ko'p kanalli ovoz, maxsus effektlar va dublyaj san'atining takomillashuvi – verbal va vizual elementlarning o'zaro ta'sirini yanada murakkablashtirdi hamda film iste'molchilari auditoriyasini kengaytirdi. Bu o'zgarishlar kino tilini doimiy ravishda boyitib bormoqda va tadqiqotchilar oldiga yangi nazariy hamda amaliy vazifalarni qo'ymoqda. Shu sababli kinodiskursni pragmatik nuqtai nazardan o'rganish bugungi tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib xulosa qilganda, filmning vizual, akustik va lingvistik komponentlari auditoriyaning hissiy hamda kognitiv reaksiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatib, diskursning pragmatik samaradorligini belgilaydi.

Tahlillarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, kinodiskursda pragmatik strategiyalar auditoriya dinamikasini, ya'ni tomoshabinning fikr, his-tuyg'u va talqin jarayonlarini faol boshqaradi. Auditoriya bilan muloqotning bunday ikkiyoqlama xususiyati kinodiskursni boshqa diskurs turlaridan ajratib turuvchi asosiy belgi sifatida tan olinadi.

Bundan tashqari, kinodiskursda pragmatika va auditoriya dinamikasining uzviy aloqadorligini o'rganish film matnining kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi, tomoshabin ongida ma'no va tasvir uyg'unligini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv kinotahlil, tarjimashunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida yangi ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'ladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot kinodiskursda tarjima va pragmatika masalalarini tizimli ravishda o'rganish hamda ularni normativlashtirish bugungi tilshunoslik sohasidagi muhim masalalardan biri ekanligini asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari kino diskursini yanada chuqur o'rganish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish va ilmiy-amaliy kommunikatsiyani samaraliroq tashkil etishga, shuningdek leksikografik bazani boyitishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot kino matnini lingvistik, semiotik va madaniy hodisa sifatida kompleks o'rganishning zarurligini ko'rsatdi. Kelajakdagi izlanishlarda turli til va madaniyatlarga mansub filmlarni qiyosiy o'rganish, shuningdek dublyaj va subtitrlar tarjimasidagi pragmatik o'zgarishlarni korpus lingvistikasi usullari yordamida miqdoriy tahlil qilish istiqbolli yo'nalish bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son qarori. (2021-yil 19-may). O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-5426736>.
2. Aijmer, K. (1996). *Conversational routines in English: Convention and creativity*. London, New York: Longman.
3. Austin, J.L. (1962). *How to do things with words*. Oxford: Clarendon Press.
4. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London, New York: Routledge.
5. Bassnett, S. (2002). *Translation studies* (3rd ed.). London, New York: Routledge.
6. Daniel, I.O.A. (2013). Communication as socio-cultural meaning exchange: The example of Richard Wright's *Black Boy*. *International Journal of Applied Linguistics and English Literature*, 2(5), 173–177.
7. Fink, G. (1982). From showing to telling: Off-screen narration in the American cinema. *Literature d'America*, 3(12), 5–37.
8. Gambier, Y. (2013). The position of audiovisual translation studies. In C. Millán & F. Bartrina (Eds.), *The Routledge handbook of translation studies* (pp. 45–59). London, New York: Routledge.
9. Goss, B. (1983). *Communication in everyday life*. Belmont: Wadsworth Publishing Company.
10. Grice, H.P. (1978). Further notes on logic and conversation. In P. Cole (Ed.), *Syntax and semantics. Vol. 9: Pragmatics* (pp. 113–128). New York: Academic Press.
11. Gutt, E.-A. (2000). *Translation and relevance: Cognition and context*. Manchester: St. Jerome Publishing.
12. Hobbs, R. (1985). *Visual-verbal synchrony and viewer attitudes: Learning from television news*. Harvard University. Dissertation Abstracts International.
13. Hunter, J. (1987). *Image and word: The interaction of twentieth-century photographs and texts*. Cambridge, MA; London: Harvard University Press.
14. Kholyk, A., & Turovska, T. (n.d.). Peculiarities of film discourse translation. Zhytomyr Polytechnic State University.
15. Kozloff, S. (2000). *Overhearing film dialogue*. Berkeley, CA: University of California Press.
16. Levinson, S.C. (1997). *Pragmatics* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
17. Lipson, M. (2008). "If it wasn't rolling, it never happened": The role of visual elements in television news. In L. Haarman & L. Lombardo (Eds.), *Iraq war television news reporting* (pp. 140–169). London, New York: Continuum.
18. Lotman, Yu.M. (1973). *Semiotika kino i problemy kinoestetiki*. Tallin: Eesti Raamat.
19. Mamadjanova, N.M. (2025). Film va teleseriallar doirasida lingvistik xilma-xillik. "Zamonaviy fan, ta'lim va ishlab chiqarish muammolarining innovatsion yechimlari" ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
20. Mamadjanova, N.M. (2026). Kinoda pragmatik va madaniy ifoda o'rtasidagi aloqa. *Buxoro*

- xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi*, (1), 2-qism.
21. Mary, J.B.A., & Bullard, S.K. (2018). Films and society: A case study of audience perception of selected Hindi films. *Research Journal of Humanities and Social Sciences*.
 22. Meinhof, U. (1994). Double talk in news broadcast. In D.Graddol & O.Boyd-Barrett (Eds.), *Media texts: Authors and readers* (pp. 212–223). Clevedon: The Open University.
 23. Morley, S. (2003). *Writing on the wall: Word and image in modern art*. London: Thames and Hudson.
 24. Ollomurodov, A.O. (2023). Tilshunoslikda kinodiskurs tahlili va nazariy asoslari. *Modern Science and Research*, 2(11).
 25. Poole, J.G. (1994). *Towards a descriptive and explanatory stylistic analysis of thought presentation in drama* (PhD thesis). Lancaster University.
 26. Scollon, R., & LeVine, P. (2004). Multimodal discourse analysis as the confluence of discourse and technology. In P.LeVine & R.Scollon (Eds.), *Discourse and technology: Multimodal discourse analysis* (pp. 1–6). Washington, DC: Georgetown University Press.
 27. Slishkin, G.G., & Yefremova, M.A. (2004). *Kinotekst: opyt lingvokulturologicheskogo analiza*. Moskva: Vodolei Publishers.
 28. Wagstaff, C. (1996). Cinema. In D.Forgacs & R.Lumley (Eds.), *Italian cultural studies: An introduction* (pp. 216–232). Oxford: Oxford University Press.
 29. Wilson, J. (1972). Significance of signs. In Mackin (Ed.), *English study series/8* (pp. 112–113). London: Oxford University Press.
 30. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.
 31. Chatterji, N. (1999). AIDS-related information exposure in the mass media and discussion within social networks among married women in Bombay, India.
 32. Chaume, F. (2012). *Audiovisual translation: Dubbing*. Manchester: St. Jerome Publishing.

REFERENCES

1. Presidential Resolution No. PR-5117 of the Republic of Uzbekistan. (2021, May 19). On measures to bring the promotion of foreign language learning in the Republic of Uzbekistan to a qualitatively new level. *Lex.uz*. <https://lex.uz/docs/-5426736>.
2. Aijmer, K. (1996). *Conversational routines in English: Convention and creativity*. London, New York: Longman.
3. Austin, J.L. (1962). *How to do things with words*. Oxford: Clarendon Press.
4. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London, New York: Routledge.
5. Bassnett, S. (2002). *Translation studies* (3rd ed.). London, New York: Routledge.
6. Chatterji, N. (1999). AIDS-related information exposure in the mass media and discussion within social networks among married women in Bombay, India.
7. Chaume, F. (2012). *Audiovisual translation: Dubbing*. Manchester: St. Jerome Publishing.
8. Daniel, I.O.A. (2013). Communication as socio-cultural meaning exchange: The example of Richard Wright's Black Boy. *International Journal of Applied Linguistics and English Literature*, 2(5), 173–177.
9. Fink, G. (1982). From showing to telling: Off-screen narration in the American cinema. *Letterature d'America*, 3(12), 5–37.
10. Gambier, Y. (2013). The position of audiovisual translation studies. In C.Millán, & F.Bartrina (Eds.), *The Routledge handbook of translation studies* (pp. 45–59). London, New York: Routledge.
11. Goss, B. (1983). *Communication in everyday life*. Belmont: Wadsworth Publishing Company.
12. Grice, H.P. (1978). Further notes on logic and conversation. In P.Cole (Ed.), *Syntax and semantics. Vol. 9: Pragmatics* (pp. 113–128). New York: Academic Press.
13. Gutt, E.-A. (2000). *Translation and relevance: Cognition and context*. Manchester: St. Jerome Publishing.

14. Hobbs, R. (1985). *Visual-verbal synchrony and viewer attitudes: Learning from television news*. Harvard University. *Dissertation Abstracts International*.
15. Hunter, J. (1987). *Image and word: The interaction of twentieth-century photographs and texts*. Cambridge, MA; London: Harvard University Press.
16. Kholyk, A., & Turovska, T. (n.d.). Peculiarities of film discourse translation. Zhytomyr Polytechnic State University.
17. Kozloff, S. (2000). *Overhearing film dialogue*. Berkeley, CA: University of California Press.
18. Levinson, S.C. (1997). *Pragmatics* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
19. Lipson, M. (2008). "If it wasn't rolling, it never happened": The role of visual elements in television news. In L.Haarman, & L.Lombardo (Eds.), *Iraq war television news reporting* (pp. 140–169). London, New York: Continuum.
20. Lotman, Yu.M. (1973). *Semiotics of cinema and problems of film aesthetics*. Tallinn: Eesti Raamat.
21. Mamadjanova, N.M. (2025). Linguistic diversity in films and television series. In *Proceedings of the scientific-practical conference "Innovative solutions to the problems of modern science, education and production"*.
22. Mamadjanova, N.M. (2026). The relationship between pragmatic and cultural expression in cinema. *Scientific Bulletin of Bukhara International University*, (1), Part 2.
23. Mary, J.B.A., & Bullard, S.K. (2018). Films and society: A case study of audience perception of selected Hindi films. *Research Journal of Humanities and Social Sciences*.
24. Meinhof, U. (1994). Double talk in news broadcast. In D.Graddol, & O.Boyd-Barrett (Eds.), *Media texts: Authors and readers* (pp. 212–223). Clevedon: The Open University.
25. Morley, S. (2003). *Writing on the wall: Word and image in modern art*. London: Thames and Hudson.
26. Ollomurodov, A.O. (2023). Analysis of film discourse and its theoretical foundations in linguistics. *Modern Science and Research*, 2(11).
27. Poole, J.G. (1994). *Towards a descriptive and explanatory stylistic analysis of thought presentation in drama* (PhD thesis). Lancaster University.
28. Scollon, R., & LeVine, P. (2004). Multimodal discourse analysis as the confluence of discourse and technology. In P.LeVine, & R.Scollon (Eds.), *Discourse and technology: Multimodal discourse analysis* (pp. 1–6). Washington, DC: Georgetown University Press.
29. Slishkin, G.G., & Yefremova, M.A. (2004). *Film text: An experience of linguocultural analysis*. Moscow: Vodolei Publishers.
30. Wagstaff, C. (1996). Cinema. In D.Forgacs, & R.Lumley (Eds.), *Italian cultural studies: An introduction* (pp. 216–232). Oxford: Oxford University Press.
31. Wilson, J. (1972). Significance of signs. In Mackin (Ed.), *English study series/8* (pp. 112–113). London: Oxford University Press.
32. Yule, G. (1996). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press.